



№4
2024



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI | ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА | BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

ILIMIY - METODIKALÍQ JURNAL



**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ
BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 4/2024

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, professor

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AĞZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Oliy Majlis Senatının jaslar, mádeniyat hám sport máseleleri komiteti baslıǵı orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

BEGIS TEMIRBAEV – Qaraqalpaqstan Respublikası Mádeniyat ministri, docent;

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, docent;

OMONILLA RIZAEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHABBAT TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ALIMA PIRNIYAZOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc);

YUSUPOV QONÍSBAY – pedagogika ilimleriniń doktori (DSc), professor;

UTEBAEV TAJIBAY - pedagogika ilimleriniń doktori (DSc), professor;

SEYTKASIMOV DAULETNAZAR - pedagogika ilimleriniń doktori (DSc);

ARTÍQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JAÑABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde jılına 2 márte basıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redaksiya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Turan oypatı 29-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel:551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

IOGAN SEBASTYAN BAX
OHANGLARDAN TARALAYOTGAN HAYOT

Saidxonov A.S.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

Annotatsiya: Maqolada atoqli nemis kompozitori Iogan Sebastyan Baxning hayoti va ijodining turmush tazriga bo‘lgan ta‘siri va ahamiyati to‘g‘risida so‘z boradi. Maqola san‘at va madaniyat sohasi vakillari va albatta ushbu sohada ta‘lim olib kelayotdan o‘quvchi talaba yoshlarga faoliyati davomida o‘quv jarayonida foydali material xifatida hizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Musiqa, polifoniya, fortepiano, kompozitor, dirijyor, organ, cherkov musiqasi

Аннотация: В статье рассказывается жизненный путь и влияние творчества на образ жизни известного немецкого композитора Иоганна Себастьяна Баха. Статья послужит полезным материалом для представителей сферы искусства и культуры и, конечно же, для студентов и учащихся которые несущих образование в этой сфере.

Ключевые слова: музыка, полифония, фортепиано, композитор, дирижёр, орган, церковная музыка

Abstract: The article tells about the influence on the lifestyle and creativity of the famous German composer Johann Sebastian Bach. The article will serve as useful material for representatives of the arts and culture and, of course, for students and pupils who carry out education in this field.

Keywords: music, polyphony, piano, composer, conductor, organ, music of church

Kirish: Bugungi kunda san‘at va badiiy ijod orqali yoshlar ruhiyati hamda ma‘naviy dunyosini yanada keng shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Yosh avlodni har tomonlama yetuk, ma‘naviy barkamol, estetik badiiy dunyoqarashi shakllanib, madaniyatli insonlar qilib tariyalash bugungi kunda ta‘lim muassasalari oldida turgan dolzarb va muxim masalalardan biri xisoblanadi. Hozirda yurtimizda ko‘plab sohalar singari madaniyat va san‘at sohalariga ham davlat siyosati darajasida e‘tibor berilib kelinmoqda.

Ushbu maqola orqali o‘zining sermahsul ijodi bilan insoniyat tamal toshiga o‘chmas bitiklar bilan iz qoldirgan buyuk nemis kompozitori Iogan Sebastyan Baxning hayoti va ijodi to‘g‘risida izlanib ushbu soha vakillari va o‘quvchi yoshlarga mazkur kompozitorni yanada yaxshiroq tanish va ijodkorga bo‘lgan hurmat, qiziqishini oshirishni maqsad qilganmiz.

Asosiy qism: XVI—XVII asrlar dunyoviy cholgʻu musiqasi jadal rivojlanishining yoʻnalishi Uygʻonish davri uchun umumiy boʻlgan intilish bilan bir edi. Cherkovning vasiyligi va hukumronligidan va oʻrta asrlar mafkurasidan qutulishga intilish, sanʼatni hayotga yaqinlashtirish, uni yordamida insonning tuygʻu va fikrlarini ifodalash oʻsha davr sanʼatkorlarini ilhomlantirgan. Aynan shu davrda musiqa mustaqillikka erishadi va maʼnaviy madaniyatning muhim mustaqil sohasiga aylanadi. Operaning paydo boʻlishi musiqaning cherkovdan butunlay ajralish jarayoniga toʻgʻri keladi, u musiqiy sanʼatning yuksak darajadagi yetukligiga, uning mislsiz rivojlanishiga imkoniyatlar ochib berdi. Cholgʻu ijrochiligi sanʼatining yuksalishi XVII asrning birinchi yarmidan koʻzga tashlanadi; u Fransua Kuperen (1668-1377), Domeniko Skarlatti (1685-1757), Geogr Fridrix Gendel (1685-1759), Iogann Sebastyan Bax va boshqalarning faoliyatlari bilan bogʻliq boʻlgan.

Nemis kompazitori Iogan Sebastyan Bax 1685-yili 31-martda Tyuringiyaning kichik shaharchasi boʻlgan Eyzinaxda dunyoga keladi. Baxlar avlodi azaldan oʻzining musiqiy iqtidori bilan tanilgan va shuhrat qozongan edi. Kompozitorning ajdodlari hunarmand boʻlib, oʻz faoliyatlarini musiqaga boʻlgan muhabbat bilan qoʻshib olib borgan. Uning katta bobosi novvoylik kasbi bilan bir qatorda, sitara cholgʻusini chalardi. Kompazitorning otasi Feyt Bax, Baxlar sulolasining yoʻlboshchisi boʻlib, oila esdaliklarida Feyt Baxning musiqaga ehtirosli qiziqishi uning avlodlarini badiiy ijod bilan shugʻullanishlari uchun boshlangʻich nuqta boʻlganligi haqida maʼlumotlar saqlangan.

Baxlar avlodidan shunchalik koʻp organchi kompozitor, skripkachi, fleytachi yetishib chiqqanki, Bax nomining oʻzi sanʼatkor soʻzi bilan sinonimga aylanib Germaniyadagi har bir musiqachini Bax deb, har bir Baxni esa musiqachi deb atay boshlagandi. Baxlarning avlodidan Nemis musiqasining rivojlanishiga oʻz hissasini qoʻshgan ellikdan ortiq musiqachilar yetishib chiqqan. Bax oilasi Sebastyanni bolalik chogʻidan sanʼatkorlik kasbiga tayyorlagan. Skripkada ilk ijro koʻnikmalarni u skripkachi va shahar musiqachisi sifatida tanilgan otasidan oladi. Boʻlajak kompozitor bolaligida ajoyib ovoz sohibi boʻlib, shahar maktabi xorida kuylardi. Uning kelajakdagi kasbiga hech qanday shubha qolmagan edi. Sebastyan toʻqqiz yoshida ota-onasidan ajrab yetim qoladi va akasi Iogan Kristof uni oʻz tarbiyasiga oladi. Akasi oʻz davrining yirik nemis organchisi va kompozitori boʻlgan. Yosh Sebastyanning kelgusidagi musiqiy taʼlimi akasining rahbarligida kechadi. Lekin buyuk isteʼdod egasi, Iogan Kristofning maktabdagi koʻzboyamachilik tarzida olib boriladigan darslarga koʻnika olmasdi. Oʻzining qiziqishlarini mustaqil ravishda akasidan yashirgan holda qoniqtirar edi. Yosh Sebastyanning kuchli tomonlari – tirishqoqlik, maqsad sari intiluvchanlik, tinmay mehnat qilish, birinchi marta ana shunda namoyon boʻldi.

Iogan Sebastyan oʻn besh yoshida mustaqil hayot boshlashga qaror qildi. Va 1700-yilda Lyumberg shahriga koʻchib keldi. Oʻz hayoti davomida Bax ish joyini oʻzgartirgan holda bir necha marta shahardan-shaharga koʻchib yuradi. Buning sababi deyarli har safar bir xil qoniqarsiz mehnat sharoiti, kamsitishlar uni qiyin ahvolga solib qoygan.

Baxning badiiy didi rivojlanishiga uning bolalikdagi oʻqituvchilari taʼsir oʻtkazmadilar. Musiqiy qobiliyati rivojlanishi uchun uning oʻzi eng yaxshi va zarur narsalarni izlab topardi. U gʻayrat bilan nafaqat nemis, shuningdek, italyan va fransuz kompazitorlarining asarlarini muntazam oʻrgandi. Baxning qobiliyati shu soha bilan chegaralanib qolmay, u oʻz davrining eng yaxshi organ va klavisin ijrochisi edi. Atoqli sanʼatkorlar bilan shaxsan tanishib ularning ijrochilik uslublarini oʻrganish imkoniyatidan ham unumli foydalanar edi. Bir kuni yoʻl kiraga mablagʻi boʻlmagan yosh Bax mashhur organchi Bukstexude ijrosini tinglash uchun boshqa shaharga piyoda boradi. Bax hayotlik davrida kompozitor sifatida tanilmagan boʻlsa ham organ cholgʻuchisi sifatida uning oldiga tushadigani boʻlmagan. Bu qobiliyatini raqiblari ham tan olishga majbur boʻlgan.

1703-yilda Bax Veymar shahriga koʻchib oʻtadi, va knyaz kopellasiga ishga kiradi 1704-yilda esa Arnshtadt shahriga kelib oʻzining qaram holatidan qoniqmasdan cherkov organchisi lavozimida ishlaydi. Bax oʻzining kompozitorlik faoliyatini xor, yakkaxon va orkestr uchun “Sen mening qalbimni doʻzaxda qoldirmassan” pasxal kantatasidan boshlaydi. Shu yerning oʻzida birinchilardan boʻlib, bizgacha yetib kelgan “Sevimli ogʻaning joʻnab ketishiga kaprichchio” klavir asarini yaratadi. Bu asar klavir suitasining bir turi boʻlib, tugallangan menyaturalaridan tuzilgan.

1707-yilda Bax oilasi bilan Kyotenga koʻchib oʻtadi. Kyoten shahzodasi saroyida Bax kamer musiqasi direktori lavozimiga tayinlanadi. Bax zimmasiga shahzoda kuykagand aunga joʻr boʻlish va uni klavisinda chalish orqali koʻnglini ochish, uncha katta boʻlmagan orkestrga rahbarlik qilish yuklatilgan edi. Bax boʻsh vaqtlarini ijod qilishga sarflar edi. U asosan, klavir va orkestr musiqasini yozar edi. Bu vaqtda uning ijodida organ asarlaridan soʻng klavir asarlari ikkinchi oʻrinni egalladi. Baxning quvonchi – ijod jarayoni va oilasi edi. Voyaga yetgan farzandlari Vilgelm Fridman, Filipp Emmanuel, Iogan Xristian qobiliyatli musiqachi boʻlib yetishishdi. Otalari hayotlik vaqtda ular kompozitor sifatida tanilgan. Qizi va rafiqasi buning ustiga yaxshi ovoz sohibasi edilar. Bu oʻziga xos kopella uchun Bax turli vokal va cholgʻu ansambllarini yozar edi. Leypsigda yashagan yillari Bax ijodiy kuchga toʻlib yashadi.

Leypsigdagi hayotining birinchi oʻn besh yigirma yilida u oʻzining “Collegium Musicum” bilan bogʻliq boʻlgan musiqiy faoliyatini rivojlantirdi. U shahar bogʻlarida, jamoat joylarida har xil konsertlar uyushtirar va u konsertlarda

drijor, ijrochi bo'lib chiqar, o'z oldiga yangi ijodiy vazifalar qoyar edi. Bu chiqishlar Bax ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatib Collegium uchun turli vokal asarlar, klavir asarlar, orkestor asarlar yaratdi. Bu yaratgan asarlari raqsbob, quvnoq, yumor ko'rinishlarini o'zida aks ettirgan. Leypsigda yashagan yillarida Bax ajoyib vokal asarlari, yakkaxon va xor uchun asarlar, oratoriyalar yaratdi. Leypsigda nemis jamiyatiga xos bo'lgan ijodiy inqirozlarni, siyosiy qarama-qarshiliklarni o'z boshidan o'tkazdi. Bu ijtimoiy ko'ngilbuzarliklar, illatlar Baxning taqdiriga ta'sir qilmasdan qolmadi. Bu yillar oralig'ida Bax Avliyo Foma qo'shiqchilar maktabi qoshida kontor vazifasini bajarar edi. Baxning zimmasiga shaharning bosh cherkovlariga xizmat ko'rsatish, cherkov musiqasi ahvoliga, sifatiga javob berish yuklatilgan edi. Ammo Bax bu vazifalarni ko'ngildagidek ado qilolmadi. Sababi cherkov musiqasi uchun, ehtiyojlari uchun ajratilgan mablag' juda kam miqdorda bo'lib, o'quvchilar o'z kunini ko'rishi uchun o'zlari harakat qilar, tirikchilik dardida xonadonlar kezishar, toylarga, sayllarga chiqishar va hattoki tilanchilik qilib, ko'chalarda yurishardi. Bunday sharoitdan ko'rinib turibdiki, professional san'atkorlarning yetishib chiqishi amrimahol edi. Bax mana shunday vaziyatda o'z tarkibida 8 nafar sozandasi bilan qolib ketgan edi: to'rt nafar trubachi, va to'rt nafar skripkachi. Bax shunday der edi: «Ularning sifati hamda musiqiy mohiyati haqida arzigulik tarzda haqqoniy gapirishga kamtarligim yo'l qoymaydi» [3: 478]. Ammo Bax qanchalik harakat qilmasin, urinmasin uni qo'llab-quvvatlashlariga erishish oson emas edi. O'z yo'lini topishga urinayotgan yangi o'qituvchiga albatta "no'noq" deb ayb qoyish eng oson yo'l edi. Buday nohaqliklarga, o'sha davrdagi jaholatni yengishga Baxning kuchi yetmas edi.

Leypsigdagi majlislarda, bayonnomalarda afsonaviy buyuk san'atkorning ayblari sharmandalarcha sanab o'tilardi, huquqlari poymol bo'lardi. Bax o'zida ishonchni, xotirjamlikni talab qilar, gohida bunday og'ir hayot tashvishlaridan juda charchardi. Shunday kunlarning birida Bax Leypsigdan ketishga qaror qiladi. Lekin urinishlari foydasizligini tushunib yetib Leypsigdan ketmaydi. Umrining oxirigacha yildan-yilga kuchayib borgan ta'qib va quvg'inlar ichida qoladi. 1730-yilda Avliyo Foma cherkoviga yangi rektor – Gessnerning kelishi Bax ko'ngilsizlarini biroz ortda qoldirganday edi. Chunki Gessner Bax ijodini xurmat qilar, qo'llab quvvatlar, ko'ngilsizliklardan ximoya qilar edi. Ammo bu xolat ko'pga cho'zilmadi.

1734-yilda yangi rektorning kelishi ya'ni johil o'ta ketgan rasmiyatchi Ernest mag'rur Baxning g'ururini pastga urishdan uyog'iga o'tmasdi. Lekin yengilmas Bax o'z obroyini saqlab qolish niyatida o'z kuchiga ishonib Saksoniya kurfyurstining saroy musiqachisi unvonini olishga harakat qiladi. Shu maqsadda Bax ikki qisimli messa yozadi va Drezden shahriga jo'natadi. Birgina messa bilan cheklanib qolmay Bax ne umidlar bilan qirol bayram tantanalariga yozilgan

kantatalarini ham jo'natadi. Afsuski hamma urimishlari bekor ketadi. Vanihoyat 1736-yil oradan uch yil vaqt o'tib Bax o'z maqsadiga erishadi, u sakson kurfyurstining saroy musiqachisi unvonini oladi. Bax pedagogik adabiyotlar yaratish uchun ko'p izlanishlar olib boradi.

Ijodiy qishiqish va izlanishlar natijasida Bax ijodiyotida invensiyalar, preludiylar va boshqa ko'plab asarlar paydo bo'ladi. Bax ko'zlari jiddiy kasallanib qolganligi sababli hayotining so'nggi yillarida ijod qilishga qiynaladi. Omadsiz operatsiyadan so'ng Bax ko'zlari butunlay ko'rish xususiyatini yo'qotadi. Shunday bo'lsa ham Bax ijoddan to'xtamas, o'z asarlarini yozib olish uchun aytib turar edi. Shu holatda umrining oxirgi yillarida polifonik pesalarning ikki turkumi – "Musiqiy hadya" va fuga san'atini yaratadi. Bu asarida polifonik mahorat muammolari o'z yechimini topgan. Kantrapunkt, polifonik shakl, fugadagi texnik imkoniyatlarni mahorat bilan tushuntirib bergan.

Xulosa: Buyuk nemis kompazitori 1750-yil 28-iyulda vafot etadi. O'limidan so'ng Bax ijodi musiqiy jamoatchilik tomonidan esga olinmay qoydi. Shu sababdan oradan ko'p o'tmay unutilib ketdi. Bax o'limidan so'ng rafiqasi va kichik qizining hayoti juda ayanchli kechadi. O'n yil o'tmay rafiqasi Anna Magdalena qashshoqlar uyida vafot etadi. Regina ya'ni kichik qizi muhtojlikda hayot kechiradi. Avliyo Foma cherkovida kompazitorning hoki dafn etilgan bo'lib, u yerga qabr toshi qoyilgan. Bugungi kunga kelib, bu joy Bax muxlislarining sevimli, doimiy ziyoratgohiga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidkhonov A. HISTORY AND DEVELOPMENT OF THE INSTRUMENTAL CONCERT GENRE //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 24. – C. 68-72.
2. Ogli, Abdullo Saidkhonov Sadrullo. "Prospects for the Development of Culture in Uzbekistan." International Journal on Integrated Education 3.7 (2023): 51-53.
3. A.Schweitzer «Johann Sebastian Bach» M.: Muzika – 1965, 728 pp
4. А.Чугаев «Особенности строения клавирных фуг Баха» М.: Музыка – 1975 год, 255 ст.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Раджабова С.Р. СОВРЕМЕННОЕ ВОКАЛЬНОЕ ПРОИЗВЕДЕНИЕ: СОЕДИНЕНИЕ ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИИ В АЦИОНАЛЬНОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ.....	3
2	Туйчиева Р.Х. СОНАТА ДЛЯ СКРИПКИ И ФОРТЕПИАНО ФАТТАХА НАЗАРОВА В КЛАССЕ КАМЕРНОГО АНСАМБЛЯ.....	12
3	Muxamedjanova Z. YOSH KOMPOZITORLAR IJODIDA KAMER-CHOLG‘U ASARLARINING IJROCHILIK TALQINI.....	17
4	Ражабова Н.Ф. ЛАДЫ НАРОДНОЙ МУЗЫКИ В КУРСЕ СОЛЬФЕДЖИО.....	26
5	Saidxonov A.S. IOGAN SEBASTYAN BAX OHANGLARDAN TARALAYOTGAN HAYOT.....	31
6	Muxamedjanova Z. B.TURSUNBOYEVNING FORTEPIANO UCHUN “SAVTI KALON SOQIYNOMASI” MAVZUSIGA VARIATSIYASI TAHLILI VA TALQIN MASALASI.....	36
7	Чаршемов Ж.А. ОРКЕСТР УЧУН КОНЦЕРТ ЖАНРИ ТАРИХИ.....	44
8	Kamalova G.M. JAMIL CHARHEMOVTIŇ “POPURRI” SHÍGARMASINIŇ ÓZGESHELIGI.....	52
9	Allaniyazov B.Q. «MUXAMMES» JANRINIŇ TEORIYALÍQ HÁM ÁMELIY MASHQALALARI.....	58
10	Мухамедзиянов К.Т. О ВОКАЛЬНОМ ЦИКЛЕ «РУБАЯТ» НОДИРА МАХАРОВА НА СЛОВА АЛИШЕРА НАВОИ.....	64

KÓRKEM ÓNER

11	Allanbaev R.O. MUZÍKALÍ SHÍGARMALARDIŇ QARAQALPAQ TEATRÍŇDA TUTQAN ORNI.....	69
12	Djumaniyazov U.M. XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRIDA RUBOB PRIMANING O‘RNI.....	76
13	Áliev N.Ġ. QARAQALPAQ MUZIKA MÁDENIYATINDA DEMLI ÁSBAPLAR.....	81
14	Kamalova G., Dauletbaeva G. DUWTAR SAZ ÁSBABIŇ ZAMANAGÓYLESTIRIWDIŇ ÁHMIYETI.....	89
15	Karimova N. O‘ZBEKISTONDA O‘TKAZILAYOTGAN XALQARO TIVALLARNING MADANIY ALOQALARDAGI ROLI (Xalqaro asal ivali misolida).....	95
16	Ризаев О. ТЕАТР ВА ЗАМОҲ.....	105
17	Shukurov A. MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA MILLIY MADANIYATNING AHAMIYATI.....	111

18	Хожаназаров Т. ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ОПЕРА САНЪАТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ.....	117
19	Мамадалиев А. ЎЗБЕК МАДАНИЙ МУСИҚА ИЖРОЧИЛИГИДА ХАЛҚ ЧОЛҒУЛАРИ АНСАМБЛЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ (чангчилар ансамблида Ф.Содиқовнинг “Ҳумор” асари мисолида)..	122
20	Назаров О. МИЛЛИЙ ЧОЛҒУЛАРДА ЎҚИТИШ УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА МУТАХАССИСЛИК ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ АҲАМИЯТИ (Абдувоҳид Мажидов фаолияти мисолида).....	129
21	Юлдашева М.Б. РОЛЬ МЕЖКУЛЬТУРНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ И КУЛЬТУРНОЙ ДИПЛОМАТИИ В ПРОДВИЖЕНИИ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА.....	135

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

22	Gulmanov I.Sh. DÁP ÁSBABÍN OQÍTÍW METODIKASÍ TARIYXÍ..	143
23	Iseev R. FORTEPIANO SABAGÍNDÁ SES GOZALLÍGÍ ÚSTINDE ISLEW PROCESI.....	154
24	Yusupaliyeva D.K. YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI TARBIYASIDA MILLIY QADRIYAT: MONIYAT VA MAZMUN....	160
25	Азимов Б. ИЛМ ВА ТАЖРИБАДАГИ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ (Васильев Феоктист Никифорович ижоди мисолида).....	168
26	Казакбаева М. РОЛЬ И РАЗВИТИИ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.....	175
27	Умарова В. РАБОТА НАД ПОЛИФОНИЧЕСКИМИ ПРОИЗВЕДЕНИЯМИ В КЛАССЕ «СПЕЦИАЛЬНОЕ ФОРТЕПИАНО».....	180

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

28	Тлеуниязова Г.Б. ЗАМОНАВИЙ ҚОРАҚАЛПОҚ ЛИРИКАСИНИНГ ТАРАҚҚИЁТ ТАМОЙИЛЛАРИДА ШЕЪР КОМПОЗИЦИЯСИ.....	186
29	Бекбергенова А.У. ПИСЬМЕННЫЙ ПАМЯТНИК «КИТАБИ ДЕДЕМ КОРКУТ» И ДАСТАН «ЕР ЗИЙУАР».....	196
30	Бекбергенова А.У. ҚАРАҚАЛПАҚ ОЧЕРКЛЕРИНИҢ РАЎАЖЛАНЫЎ ТЕНДЕНЦИЯЛАРЫ (1991-2000-жыллар).....	202

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

“STATION X” baspası
Nókis-2024